



Axborot xabarnomamizning sakkizinchi soniga xush kelibsiz!

Sizning e'tiboringizga [Yevropa Ittifoqi](#) (YI) ning [Xalqaro Savdo Markazi](#) (XSM) tomonidan amalga oshirilayotgan "[O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lish jarayoniga ko'maklashish](#)" loyihasi bo'yicha axborot xabarnomamizning sakkizinchi sonini taqdim etishdan mamnumiz. Bizning loyihamiz O'zbekistonni [Jahon Savdo Tashkilotiga](#) (JST) a'zo bo'lish jarayonida qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. JSTga a'zo bo'lish mamlakatga o'z iqtisodiyotini modernizatsiyalashda hamda jahon iqtisodiyotiga integratsiya qilishda yordam beradi.

Ushbu sonda O'zbekistonga 2022-yilning iyul-sentyabr oylari oralig'ida ko'rsatilgan texnik ko'mak, xususan, ishchi guruhning 5-yig'ilishi (2022-yil 21-iyun kuni bo'lib o'tdi) yakunlari bo'yicha talab etilgan a'zolik uchun navbatdagi hujjatlar to'plamini tayyorlash jarayoni haqida ma'lumot beriladi. Ushbu materiallar ishchi guruhning 6-yig'ilishining diqqat markazida bo'ladi. So'nggi chorakda, shuningdek, JST TRIPS shartnomasi talablariga muvofiqligini tahlil qilish maqsadida O'zbekistonning intellektual mulk huquqlari bo'yicha milliy qonunchiligini ko'rib chiqish bo'yicha ishlar o'z yakuniga yetdi.

Mamlakatning barcha hududlarida xususiy sektor uchun tashkil etilgan 13 ta seminar ham chorak davomidagi muhim voqealardan biri bo'ldi. Ushbu seminarlarda tadbirkorlar JSTga a'zo bo'lishning afzalliklari va imkoniyatlarini muhokama qildilar.

Mazkur nashr ingliz va o'zbek tillarida ham mavjud.

Loyihamiz haqidagi batafsil ma'lumot [ingliz](#), [rus](#) va [o'zbek](#) tillaridagi veb-saytlarimizda mavjud.

Barcha savollar bo'yicha quyidagi elektron manzilga murojaat qilishingizni so'raymiz: WTOAccessionUZB@intracen.org

Aloqada bo'ling: #WTOAccessionUZB

O'qishdan zavq olishingizni tilab qolamiz!



JAMOAMIZDAN IZOH:

Kindly note that you have been included in the mailing list of our newsletter following your participation to one of our events. If you wish to unsubscribe, you can do so [here](#).


Обращаем внимание, что вы были включены в список нашей новостной рассылки по итогам участия в одном из наших мероприятий. Если вы хотите отказаться от рассылки, пожалуйста, пройдите по этой [ссылке](#).

Сиз ахборотнома почта рўйхатимизга бизнинг тадбирлар бирида иштирок этганлигиз натижасида киритилганлигини эслатиб ўтамиз. Ушбу обунани бекор қилмоқчи бўлсангиз, келтирилган [хавола](#) орқали уни рад қилишингиз мумкин.

[Batafsil Ma'lumot](#)

LOYIHANI AMALGA OSHIRISH: JARAYON VA ERISHILGAN NATIJALAR

Loyiha belgilangan bir qator maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan:

	O'zbekiston hukumati JSTga a'zo bo'lish jarayoni talablariga muvofiq hujjatlarni tayyorlash to'g'risida va muzokaralar olib borish pozitsiyasini ishlab chiqish haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'ladi.
	O'zbekiston hukumati JSTga a'zo bo'lish jarayoni talablariga muvofiq hujjatlarni tayyorlash to'g'risida va muzokaralar olib borish pozitsiyasini ishlab chiqish haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'ladi.
	Savdo siyosatini ishlab chuquvchi davlat xizmatchilarining JSTga a'zo bo'lish jarayoni hamda tashkilotning huquqiy asoslari to'g'risida xabardorligi oshiriladi.
	O'zbekiston JST qoidalarini, xususan JSTning SFS/STT bitimlari va savdo tartiblarini osonlashtirish to'g'risidagi bitimni bajarish bo'yicha tayyorgarlik darajasini oshiradi.
	XSM amalga oshirayotgan ish JSTga a'zo bo'lish jarayoni va a'zolik afzalliklari to'g'risida biznes sohasi, jumladan, ayol ishbilarmonlar uyushmalari o'rtasida xabardorlikni oshirishga yordam beradi.

Loyiha haqida kengroq tasavvurga ega bo'lish uchun o'tgan chorakdagi faoliyat va erishilgan yutuqlar ushbu loyihaning beshta maqsadiga ko'ra ko'rib chiqiladi.

1-MAQSAD

JSTga a'zo bo'lish jarayoni uchun zarur bo'lgan hujjatlar va muzokaralardagi pozitsiyalarni xabardor bo'lgan holda ishlab chiqish

JSTga a'zo bo'lishning asosiy maqsadi – ushbu jarayonni boshdan kechirgan mamlakat va tashkilot a'zolari o'rtasidagi muzokaralaridir. Ushbu muzokaralar, birinchi navbatda, qo'shilayotgan mamlakatning mavjud savdo va iqtisodiy siyosatini muhokama qilishga, ularni JST shartnomalariga muvofiq o'zgartirishga qaratilgan. Loyiha ushbu jarayonga ko'maklashishni o'z oldiga maqsad qilgan. Uning doirasida muzokaralar uchun hujjatlarga zarur o'zgartirishlar ishlab chiqilmoqda. Chorak davomida loyiha ishchi guruhning 5- yig'ilishi (2022 yilning 21 iyun kuni bo'lib o'tdi) uchun zarur bo'lgan JSTga qo'shilish jarayonida talab etiladigan hujjatlarni yangilash va tayyorlashda yordam berdi. Ushbu hujjatlarda JST a'zolarining O'zbekiston tashqi savdo rejimiga oid savollariga javoblar, shuningdek tashkilotga qo'shilish to'g'risidagi yangilangan hujjatlar to'plami o'z aksini topgan. Hujjatlar to'plami, o'z navbatida, Qonunchilikni isloh qilish rejasi (LAP), subsidiyalar haqida bildirishnoma va bojxona baholashi, sanitariya va fitosanitariya choralari (SFS), savdo-sotiqdagi texnik to'siqlar (TBT), TRIPS chora-tadbirlari bo'yicha ro'yxatlaridan, shuningdek davlat savdo korxonalarining ro'yxatidan tarkib topgan. Ushbu hujjatlarning taqdim etilishi ishchi guruhning 6-yig'ilishini tashkil etishda yordam beradi.

2-MAQSAD

O'zbekistonning milliy savdo siyosatini JSTga a'zo bo'lish talablariga muvofiqlashtirish uchun muayyan sohaviy qonunlar va me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish salohiyatini oshirish

Milliy qonunchilikning JST qoidalariga muvofiqligi tashkilotga a'zo bo'lish jarayonidagi eng muhim talablardan biri hisoblanadi. O'tgan chorakda O'zbekiston milliy qonunchiligiga intellektual mulk huquqlari bo'yicha o'zgartirishlarni tayyorlash, xususan, uni JST TRIPS kelishuviga hamda intellektual mulk to'g'risidagi boshqa xalqaro konvensiyalarga muvofiqlashtirish bo'yicha ishlarning yakunlanishi muhim yutuq bo'ldi.

Loyiha doirasida, shuningdek, mamlakatning savdo himoyasini JST qoidalariga mos kelishi bo'yicha batafsil tahlil o'tkazildi. Jahon savdo tashkiloti qoidalariga muvofiqlashtirish maqsadida antidemping, kompensatsiya va maxsus himoya choralari sohasidagi milliy qonunchilik bo'yicha tavsiyalar tayyorlandi.

ITSV iltimosiga binoan, loyiha qo'shimcha ravishda monopoliyaga qarshi komissiya vakolatiga kiradigan tabiiy monopoliyalar va subsidiyalar to'g'risidagi o'nta milliy qonun hujjatini tahlil qildi. Hujjatlar rus tilidan ingliz tiliga tarjima qilindi hamda ularning JST shartnomalariga muvofiqligi tahlil qilindi.

3-MAQSAD

Savdo siyosatini ishlab chiquvchi davlat xizmatchilarining JSTga a'zo bo'lish jarayoni va huquqiy asoslari bo'yicha xabardorligini oshirish

Davlat xizmatchilarining JST faoliyati bilan bog'liq masalalarni, shuningdek a'zolik jarayonining texnik jihatlarini anglash darajasini oshirish maqsadida loyiha o'quv tadbirlarini o'tkazishni nazarda tutadi.

Jumladan, so'nggi uch oyda loyiha Toshkentdagi Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti (JIDU) ta'lim dasturiga "JST huquqi va amaliyoti" kursini joriy etishga ko'maklashdi. Ushbu universitet xodimlariga bir qator qisqa ixtisoslashtirilgan treninglar va ma'ruzalar taklif qilindi.

To'rt nafar JIDU professori Shveytsariyaning Bern shahridagi Jahon Savdo Instituti (JSI) qoshidagi yozgi akademiyada bir haftalik savdo siyosati kurslarida tahsil olishdi. Bundan tashqari, TBT va SFS kelishuvlari, savdo muzokaralari va muzokaralar usullarini yaxshiroq anglashga yordam berish maqsadida JIDU akademik xodimlari hamda talabalar uchun ikkita trening tashkil etildi.

4-MAQSAD

Sanitariya-fitosanitariya (SFS) me'yorlariga, savdodagi texnik to'siqlar (STT) va savdo chora-tadbirlarini soddalashtirish bo'yicha JST majburiyatlariga rioya qilishda milliy institutsional imkoniyatlarni kuchaytirish

Loyiha JST qoidalariga muvofiq TBT va SFS bilan bog'liq chora-tadbirlarni qo'llash bo'yicha institutsional salohiyatni yanada mustahkamlashga tayyor. Yordamning ustuvor yo'nalishlari 2022-yil noyabr oyida rejalashtirilgan XSM va milliy hamkorlar o'rtasidagi uchrashuvda muhokama qilinadi.

5-MAQSAD

Manfaatdor tomonlarning, shu jumladan ayollar uyushmalarining JSTga a'zo bo'lish haqida xabardorligini oshirish

Loyihaning asosiy maqsadlaridan biri xususiy sektorning JSTga qo'shilishning afzalliklari va imkoniyatlari va O'zbekistonning jahon iqtisodiyotiga keyingi integratsiyasi to'g'risida xabardorligini oshirishdir.

Ushbu maqsad doirasida 2022-yilning iyul-sentyabr oylari oralig'ida loyiha O'zbekiston hududlarida bir qator kompleks seminarlar o'tkazdi. Tadbirlar mamlakatning barcha hududlarida, ya'ni Andijon, Buxoro, Jizzax, Farg'ona, Qashqadaryo, Xorazm, Namangan, Navoiy, Samarqand, Surxondaryo, Sirdaryo, Toshkent va Qoraqalpog'iston Respublikasida bo'lib o'tdi. Seminarlar JSTning maqsadlari va tamoyillarini tushuntirishga qaratilgan bo'lib, ularda O'zbekistonning tashkilotga a'zoligidan, ayniqsa xususiy sektor uchun taklif etiladigan imtiyozlar haqida ma'lumot berildi. Seminar ishtirokchilarining fikr-mulohazalari esa ijobiy bo'ldi.



Hududlarda o'tkazilgan seminar ishtirokchilari JSTga a'zolilikning afzalliklari to'g'risida ma'lumot olmoqdalar.

Fotosurat: XSM

Tadbirlarda 399 nafar O'zbekiston ishbilarmon doiralari vakillari, shu jumladan 61 nafar ayol ishtirok etdi. Seminarlar davomida ishtirokchilarga eksportni rag'batlantirish chora-tadbirlari bo'yicha loyiha doirasida tayyorlangan axborot materiallari, shuningdek, JST qonunchiligi va amaliyoti bo'yicha rus tilida mavjud bo'lgan umumlashtirilgan qo'llanma taqdim etildi.

ITSV bilan hamkorlikda xususiy sektorni JSTga a'zo bo'lish to'g'risida xabardor qilishning qo'shimcha imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

[Maqolalarni veb-saytimizda o'qing](#)